

Usanov Sherzod

**OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH
(uslubiy qo'llanma)**

Samarqand 2023-yil



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY
MARKAZI**

Usanov Sherzod Abdulaxatovich

**OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH
(uslubiy qo‘llanma)**

Samarqand 2023-yil

UDK 51(076.1)**KBK 22.18****P 57**

Usanov Sherzod Abdulaxatovich. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: **SamDU nashri**, 2023. – 48 bet.

Ushbu uslubiy qo‘llanma ota-onalarning pedagogik madaniyatini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lib unda oila sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to‘ldirib borish va takomillashtirishga oid tavsiyalar bilan tanishadi. Ota-onalarning oila tarbiyasini yanada yaxshilash va takomillashtirishiga bevosita amaliy yordam beradi.

Taqrizchilar:

Asomiddin Raximov - fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi).

Begmatova Dilnoza- pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent (SamDCHTI).

Mas’ul muharrir:**dotsent A.Raximov**

©Samarqand davlat universiteti

Kirish

Bugungi jamiyatimiz ta'limning bosh maqsadi o'quvch-yoshlarni jamiyat, davlat va oila oldida o'zining ma'suliatini chuqur anglaydiga, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o'qitib tarbiyalashdan iborat.

Maqsadimizga erishishimizda, yangi O'zbekistonni qurishimizda, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq. Haqiqatan ham ma'naviyatning asosini, poydevorini tashkil etadigan halollik, adolat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratini tashkil etadi. Chunki halollik, adolat shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy xarakterga ega. U yo'q joyda hech qachon, hech vaqtda baxt-saodat bo'lmaydi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida buyuk Imom Buxoriy hazratlarining "Al-Jome' as-Sahih" asaridagi "Barcha ezgu amallar niyatga bog'liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi"¹ -degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma'no bor. Har bir inson, ota-onalar ham o'z harakatlarini ezgu niyatlardan boshlab sayi-harakat qilsalar o'z maqsadlariga etishadilar.

Ma'naviy barkamol inson avvalo oilada, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'limi, oliy ta'lim, mehnat jamoalari va ijtimoiy jamiyatda tarbiyalanadi, shakllanadi. Buning uchun inson yuqoridagi pedagogik ta'lim-tarbiya muassasalarida ma'naviyatning asosini, negizini tashkil etadigan halollik adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi milliy ma'naviy-axloqiy tushunchalar haqida tizimli, uzluksiz ilmiy ma'lumot olmog'i hamda ularni hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma va odatlarni tarkib toptirmog'i shart.

Shuning uchun oila tarbiyasidagi nuqsonlarni bartaraf etish juda muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday ko'ngilsiz holatga chek qo'yish uchun oilada bolalarning milliy ma'naviy-axloqiy tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil qilish, uni yaxshilash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. Ma'rifat gazetasi, 2018 yil, 29-dekabr, №104 (9169).

va takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb ijtimoiy pedagogik masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalani hal qilishning ilmiy va amaliy yo'li birinchi galda keng aholi va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirishdir.

Oilada ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma'lumot berishda mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash yuzasidan treninglar o'tkazish, "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlar kabi didaktik materiallar turkumini yaratish, ota-onalarga bola tarbiyasida to'plangan ijobiy tajribani tarbiya amaliyotida ommalashtirish kabi ko'plab yo'nalishlarda tashkil etilsa, uning samaradorligi yanada oshadi.

Mazkur qo'llanmada ota-onalar o'quvch-yoshlar tarbiyasi to'g'risida nazariy, ilmiy bilimlarga ega bo'lishi, oila sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to'ldirib borish va takomillashtirishga oid tavsiyalar bilan tanishadi.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini tarkib toptirish dolzarb pedagogik muammo sifatida

«Faqat baxtli odamgina, baxtli insonni tarbiyalay oladi: nima qilsangiz ham baxtli bo‘ling, aks holda bolalarni tarbiyalay olmaysiz»

A.S.Makarenko

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida buyuk Imom Buxoriy hazratlarining “Al-Jome’ as-Sahih” asaridagi “Barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi”² -degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma’no bor. Har bir inson, ota-onalar ham o‘z harakatlarini ezgu niyatlardan boshlab sayi-harakat qilsalar o‘z maqsadlariga etishadilar.

Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Bunday insonlar avvalo oilada va uzluksiz ta’lim tizimida tarbiyalanadi, shakllanadi. Buguni kunda jismoniy sog‘lom, aqlan ziyrak va ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash bag‘oyat dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bugungi jamiyatimiz ta’limning bosh maqsadi o‘quvch-yoshlarni jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining ma’suliatini chuqur anglaydiga, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tarbiyalashdan iborat.

Maqsadimizga erishishimizda, yangi O‘zbekistonni qurishimizda, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma’naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o‘sib kelayotgan yosh avlodga bog‘liq. Haqiqatan ham ma’naviyatning asosini, poydevorini tashkil etadigan halollik, adolat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratini tashkil etadi. Chunki halollik, adolat shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy xarakterga ega. U yo‘q joyda hech qachon, hech vaqtda baxt-saodat bo‘lmaydi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. Ma’rifat gazetasi, 2018 yil, 29-dekabr, №104 (9169).

Xususan insonning ma'naviy barkamolligining tarkibini tashkil etadigan halollik, adolat kabi ma'naviy tushunchalar inson ongida, qalbida, shug'ullanadigan ishida, xullas ijtimoiy hayotida tarkib topmas ekan, u inson komil bo'la olmaydi. Demak, inson etuk bo'lishi uchun esa birinchi navbatda o'zida xalollik, adolat kabi ma'naviy tarbiya tarkiblarini, asoslarini o'zida tarkib toptirmog'i zarur.

Etuk insonlarsiz esa o'z navbatida insonlar, xalq, jamiyat, davlat o'z murod maqsadiga erisha olmaydi. Ularning yagona maqsadiga erishishni esa faqat ma'naviy barkamol inson va xususan shunday insoniy fazilatga ega bo'lgan barcha insonlar ro'yobga chiqarishi muqarar. Chunki ma'naviyatsiz inson yashay olmaydi va yashay olmasligi ham kerak. Shuning uchun ham hozir ma'naviy barkamol insonni tarkib toptirish, shakllantirish ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu haqda sharqning mashhur allomasi Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilik» dostonida «Xalol, haqgo'y, axloq-odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan ham qimmatlidir»³, -deb bildirgan fikri bag'oyat hayotiyiligini ijtimoiy hayotning o'zi isbotlab turibdi. Chunki shunday insoniy fazilatlarni o'zida shakllantirgan insongina oilasiga, jamiyatga, davlatga moddiy va ma'naviy foyda keltiradi. Shuning uchun ma'naviy barkamol o'quvchilarni oilada tarbiyalash, shakllantirish jamiyat rivojlanishining ob'ektiv ehtiyoji bo'lib qolmoqda.

Ma'naviy barkamol inson avvalo oilada, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'limi, oliy ta'lim, mehnat jamoalari va ijtimoiy jamiyatda tarbiyalanadi, shakllanadi. Buning uchun inson yuqoridagi pedagogik ta'lim-tarbiya muassasalarida ma'naviyatning asosini, negizini tashkil etadigan halollik adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi milliy ma'naviy-axloqiy tushunchalar haqida tizimli, uzluksiz ilmiy ma'lumot olmog'i hamda ularni hayotda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma va odatlarni tarkib toptirmog'i shart.

Bunday ma'naviy-axloqiy tushunchalarning tarbiyada susayganligi oqibatida ko'plab ko'ngilsiz holatlarni yuzaga kelmoqda. Natijada ba'zan oila tarbiyasida halollik o'rnini harom, adolat o'rnini adolatsilik, diyonat o'rnini diyonatsizlik kabi

³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. -Toshkent: «Fan», 1972.-964 b.

tarbiyaga zid razil tushunchalar egallaydi. Shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy ijtimoiy inqiroz va ayniqsa iqtisod borasida pasayish ro'y berdi. Demak, jamiyat ijtimoiy rivojlanishini va ayniqsa iqtisodini mo'tadillashtirish uchun oilada o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini hozirgi zamon ruxi talabi asosida tashkil etish, yaxshilash, takomillashtirish shart. Busiz jamiyatning, davlatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mushkul.

Shuning uchun oila tarbiyasidagi nuqsonlarni bartaraf etish juda muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday ko'ngilsiz holatga chek qo'yish uchun oilada bolalarning milliy ma'naviy-axloqiy tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil qilish, uni yaxshilash va takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb ijtimoiy pedagogik masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalani hal qilishning ilmiy va amaliy yo'li birinchi galda keng aholi va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirishdir.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ota-onalarga qarata aytgan: "Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, unga yaxshi ot qo'y. Farzandni oqil va mehribon doyalarga topshir. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilgaysan, qudratingga loyiq to'y va tomosha qilgaysan, hamda o'qishni, hunar va kasb o'rgatgaysan"⁴ -deb bildirgan fikri bag'oyat hayotiyiligini ijtimoiy hayotning o'zi isbotlab turibdi.

Bizningcha, mazkur rejaning ijtimoiy hayotda ota-onalar o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amaliy tashkil qilish, yaxshilash va takomillashtirish uchun avvalo ota-onalarning pedagogik bilim va ma'lumotlarini, ko'nikma va tajribalarini quyidagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tashkil qilish uning samaradorligini ta'minlaydi. Buning uchun avvalo oilada ota-onalar o'zlarida quyidagi tuzilish va mazmunda pedagogik ma'lumotga ega bo'lmog'i darkor. Bular:

- insonning ijtimoiy hayotda halol, adolatli bo'lishi birinchi galda insonning o'ziga, oilasiga, jamiyatga, davlatga iqtisodiy, ijtimoiy foyda keltirishini anglamog'i va shunga mos holda ish yuritmog'i;

- hayotda xalol, adolatli bo'lish insonni ma'naviy etib tarbiyalashning ob'ektiv talabi, ehtiyojiligini anglamog'i va bolalarni ishontirmog'i;

⁴ Kaykovus "Qobusnoma" T.: Istiqlol, 1994. 85-b.

- hayotda insonning halol, adolatli bo'lishi uning shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishining ma'naviy asosligiga, poydevorligiga tayanmog'i;

- hayotda insonning halol, adolatli bo'lishi jamiyat a'zolarining ongi bilan xulq-atvori, so'z va ish birligini ta'minlashning tarkibligiga ishonmog'i va shunga mos oilada ish yuritmog'i;

-hayotda insonning halol, adolatli bo'lishi insonning milliy ongi, o'zligini anglashi, milliy g'urur va millatidan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirishga olib kelishiga ishonmog'i va bolalarida shunday sifatlarni tarkib toptirmog'i;

- hayotda insonning halol, adolatli bo'lishi ona Vatanga, ajdodlarga sodiq va munosib bo'lishning vositaligini anglamog'i va shu asosda oila hayotini tashkil qilmog'i;

- hayotda insonning halol, adolatli bo'lishi o'z millatiga, o'z xalqiga, o'z mamlakatiga sadoqatligini ifodalvochi milliy qadriyatligiga ishonmog'i, shunga mos oilada ish yurita olmog'i va xokazo.

Oilada ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma'lumot berish quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Bular:

- bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

- mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash yuzasidan treninglar o'tkazish;

- "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;

- oilada ota-onalarga bola tarbiyasida to'plangan ijobiy tajribani tarbiya amaliyotida ommalashtirish;

- "Yosh ota-ona kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, oilada o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda, shakllantirishda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirish barkamol insonni tarkib toptirishning asosiy tarkibi bo‘lmog‘i darkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Bugungi kunda ota-onalarning bola tarbiyasi haqida bilimlarini izohlang?
2. Nima uchun ota-onalarga bola tarbiyasi haqida bilim berish kerak?
3. Nima uchun ota-onalarga ma’lumot berish davr talabi bo‘lmoqda?
4. Ota-onalarga pedagogik bilimlar berishda qanday tadbirlar amalga oshirilishi lozim?
5. Ota-onalarga pedagogik bilimlar berishning qanday shakllari mavjud?
6. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishda qanday muammolar mavjud?
7. Ommaviy axborot vositalari orqali ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish mumkinmi?

Ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma’lumot berish

Inson omilini har tomonlama rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixiy tajribasidan ma’lumki, bola kamoloti asosan oilada shakllanadi. Oila jamiyat hayotini olg‘a suruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun ma’sul bo‘lgan tarbiya o‘chog‘idir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» asarida: «Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir» -deb bildirgan fikri oilada ota-onalarga bola tarbiyasi haqidagi ma’lumotning tarkibiy qismini tashkil qiladi va ularga alohida ma’suliyat yuklaydi. Chunki oilada bola ma’naviy tarbiyasini olib bormay uni hayotga tayyorlash mushkul.

Jamiyatimiz taraqqiyoti o‘zining rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda inson yetukligini ta’minlovchi va tarbiya samaradorligini oshiruvchi omillarni vujudga keltirish talabini qo‘ymoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 73-moddasida «Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-onalar bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart» -deb ota-onalarga ijtimoiy pedagogik vazifa yuklatilgan. Bunday ulkan ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish uchun oilada ota-onalarga pedagogik bilimlar berish talab etiladi. Buning uchun mamlakatimizda avvalo oilalarning mustaqil bo‘lishiga asosiy e’tiborini qaratilmoqda va oilaga alohida ijtimoiy mas’uliyat yuklaydi.

Farzand tarbiyasi haqida O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi XIV bob 64-moddasida «Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» -deb huquqiy asoslangan. Yuqoridagi rasmiy hujjatlar mazmuni ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma’lumot berishni taqozo qiladi. Qomusimizdagi va “Oila kodeksi” dagi bu ma’suliyat va uni bajarish ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalarning bu ma’suliyatini amalda bajarishlari bevosita ularning shu boradagi bilimlari va pedagogik madaniyatlariga bog‘liq.

Yangi O‘zbekiston rivojlanishining bosh mezonida aholisi orasida umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, ma’rifiy ishlar takomillashtirilib borilishi belgilangan. Shu nuqtai nazardan yondoshganda, oila tarbiya muammolari ichida, ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari bag‘oyat keng va ko‘p tarmoqli. Ota-onalar o‘z oilasining tarbiyaviy va moddiy imkoniyatlaridan to‘la foydalana olsalar oilalar iqtisodiy, ma’naviy, ijtimoiy jihatdan barqaror, mustahkam bo‘ladi. Bunday ijtimoiy maqsadga erishish uchun oilada ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish zarur.

Shuning uchun ham ota-onalarga oilada bolalar tarbiyasi haqida bilim va tarbiya uslublari bilan qurollantirish g‘oyat amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo'lmagan, balki keng jamoatchilikning ishi, keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir.

Atoqli pedagoglar oilada tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish shartlaridan biri ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish deb hisoblangan va shunday bo'lib qoladi. Buning uchun avvalo pedagogika-psixologiya bakalavr mutaxassislariga, boshqa pedagoglarga va ayniqsa ota-onalarga bola tarbiyasi haqida bilim berish maqsad va vazifalarini bilishlari kerak.

Ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma'lumot berishning maqsadi ularga bola tarbiyasi haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lmay, bolani to'g'ri tarbiyalash mumkin emasligini tushuntirish, anglatishdan iborat.

Vazifasi esa, ana shu ilmiy bilimlarga tayanib bolani to'g'ri tarbiyalash bilan bog'liq amaliy ko'nikma, malaka va tajribani tarkib toptirishdan iborat.

Xususan mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiyning «Pedagogik adabiyot sohasida»gi risolasida: «Ota-onalar uchun pedagogik bilim dastlabki adabiyotlar o'rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan xalqchilik g'oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon, tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», -deb bolani milliy tarbiyalashga da'vat etgan.

K.D.Ushinskiy oila tarbiyasiga yuqori baho berib, oila tarbiyasi ota-onalarning xususiy ishi emas, balki ularning fuqarolik burchi deb hisoblagan. U bolalar tarbiyasi va ta'limi haqida g'amxo'rlik qilishni butunlay maktab zimmasiga yuklab qo'yishga intiladigan ota-onalarni qoralagan. Ushinskiy ota-onalar bola ta'lim-tarbiyasiga oid bilimlar olishlari zarur deb hisoblagan va uni quyidagicha ifodalagan: «Ota-onalar o'z bolalaridan nimalarni talab etishlari mumkinligi haqida to'g'ri va aniq tushunchalarga ega bo'lmoqlari kerak». Ular «tarbiyaning bo'lajak muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining dastlabki urug'larini sochadilar. Bunda ular uchun ta'lim-tarbiyaga doir bilim olishning qanchalik muhim ekanligini tushuntirib o'tirishning hojati yo'q», -deb e'tirof etgan. Haqiqatdan ham ba'zi ota-onalar farzandlaridan ular uchun juda zarur bo'lgan narsalarni ham talab qila olmaydi. Bunday hol bola tarbiyasida muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bolani milliy tarbiyalash borasida ba'zi ota-onalarning bilimi yetarli emas.

Onalarning bola tarbiyasidagi o'rnini to'g'risida mashhur pedagog Faxr-ul Banot Subg'atulloh qizi «Oila saboqlari» asarida: «...Bir bola dunyoga keluvi birla, uning eng avvalgi tarbiya maktabi onaning quchog'idir. Avvalgi tarbiya naqadar tubli bo'lsa, shunga qarab boshqalarning ham komil darajada o'rganiluvini aniq bo'lgandan bolalarning tarbiyasi komil bo'lishi uchun qizlarimizning, xotunlarimizning go'zal tarbiya ko'rgan bo'lurlari, xususan tarbiyasi, fikrli bo'lurlari lozimdir. Bolalar tarbiyasi xotunlarga maxsus bir vazifa bo'lgani uchun bu tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo'lmog'i lozim kelur» -deb bildirgan fikri bag'oyat qimmatli va hayotiydir.

Taniqli tatar pedagogi Rizouddin ibn Faxruddin «Oila» asarida onalarning bilimli bo'lishi haqida: «...Bir mamlakatni idora qilmoq uchun naqadar ko'p usullar qo'llashga zarurat bo'lsa, oilani idora etish mushkulligi bundan yengil ish emas. Shuning uchun xotunlar ilmi bo'lurlari zarur. Shunga ko'ra xotunlar ona-yu, xotun bo'lish uchun shu ilmlarni o'rganish lozim bo'ladi». «Insonlarning saodatlarini tarbiyaga bog'liq bo'lib, tarbiya ham xotunlar qo'lidadur. Shuning uchun, umuman xalqni tarbiyasi qilish uchun xotunlarni tarbiyalamoq hamda shu tarbiyani bolalarga ham bera oladigan darajaga olib borish lozim», -deb ta'kidlagan fikrlari oila tarbiyasida hayotiydir.

Turk pedagogi Aliy Nazimo «Qizlar tarbiyasi» asarida onaning bilimdon bo'lishi haqida: «yurt jamoalarining yaxshi tarbiya qilinuvini, salomatligi va onalikning, zavjalikning ado qilinuvini, yurt ishlarining ko'rkam suratda yuritiluvini uchun qizlarga mustahkam va to'g'ri bir ravishda ilmu tarbiya o'rgatuv lozimdir. Endi xonim qizlarga aytamiz: tirishingiz, vaqtni o'tkazmay, aqlu zehningizni o'tkir qilingiz, qaysiki ikki shart birladir. Birinchisi: ishlarning birinchi darajalisi qizlik, xotunlik, yosh onalik kabi ishlaringizga hech bir kamchilik keltirmasin. Ikkinchisi shuldirki, bilgan narsalaringiz uchun hech bir vaqt mag'rur bo'lmangiz va uni hamon o'rganishga tirishingiz. Bu ikki shartni o'rniga qo'ya olsangiz, ilmu-kamol egalari bo'lursiz va buning uchun hech kim sizni ayb etmas» -deb o'rinli ta'kidlagan.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasida oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqida to'la va mukammal bilimga ega bo'lish kerakligi e'tirof etilgan va

oilada bola tarbiyasi uchun asos, negiz bo'la oladi. Ayniqsa onalarning bilimdon bo'lishi alohida ta'kidlanayapti. Chunki onalar bola tarbiyasida ko'p vaqtni birga o'tkazadi va hal qiluvchi ta'sir ko'rsata oladi. Bu tabiiy hol albatta.

Ota-onalarni tarbiyaga oid pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, oilada bola tarbiyasini to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Demak, oila hayotini to'g'ri tashkil qilish uchun olimlar, o'qituvchilar, psixologlar, keng jamoatchilik oila pedagogika fani orqali ota-onalarga amaliy yordam berish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Pedagog-psixolog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ma'rifiy targ'ibot ishlari quyidagi talablar va shartlarda olib borilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o'zining barcha tarbiyaviy ta'sirini oilaviy tarbiyaga izchil, uzluksiz va doimo yo'naltira olsa;

2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorlikdagi etik-pedagogik, psixologik tarbiyaviy talablarni maqsadli tashkil eta olsalar;

3. Xalq ta'limi bo'limi, ta'lim-tarbiya muassasalari, ota-onalarni va jamoat tashkilotlarini tarbiyaviy jarayonga torta olsalar;

4. O'qituvchilar, psixologlar bolalar maktabga kelmasdan oldin oilada bu ishni boshlasa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida doimo, izchil davom ettirilsa;

5. Oilaga namunali psixologik xizmat ko'rsatish joriy etilsa;

6. Mahalliy hokimiyat, o'quv muassasalari bola tarbiyasida ma'suliyatsiz ota-onalarga ta'sir etishning uddasidan chiqsa olsalar va hok.

Oilaning ijtimoiy kuch quvvati uning tarbiya berish imkoniyatlaridanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oilada ota-onalarga tarbiyaga oid bilimlar berish va ularning tarbiyachilik mahoratini oshirishda yechimini kutayotgan muammolar ko'p. Uning samaradorligi asosan xalq xo'jaligi barcha mehnatkashlarning bir yoqadan bosh chiqarib maqsad asosida birlashishlariga bevosita bog'liq. Hayotda nima bo'lmoqda? Amalda esa bu masala bilan faqat xalq maorifi va ta'lim-tarbiya muassasalari shug'ullanmoqda. Hokimiyat, madaniyat, sog'liqni saqlash, adliya, zavod, fabrika, fermer, dehqon

jamo'a xo'jaligi ishchi va xizmatchilari bu ishga deyarli jalb qilinmagan. Mana shunday ahvolning o'zi oila tarbiyasida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ota-onalarga tarbiyaga oid bilimlar quyidagi shakllarda olib borilmoqda: aholi uchun ochilgan tarbiya madaniyatini targ'ib qiluvchi xalq va ota-onalar dorilfununlaridan; ota-onalar qulliyotidan; ota-onalar lektoriyasi; seminarlar; huquqiy meditsina bilimlar maktablaridan; pedagogika va bolalar ruhiyatini o'rganuvchi to'garaklardan va hok.

Sinf va guruh murabbiylarining o'quvchilar ota-onalar bilan olib boradigan tushuntirishi, suhbatlari, konsultatsiyalari, metodik maslahatlari ota-onalar tarbiya savodxonligini oshirishning samarali amaliy shakllarini tashkil etadi.

Bizningcha, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishda sinf, maktab ota-onalarining munozarali baxslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi ijtimoiy hayot va oilaviy vaziyat ota-onalarning oilada bola tarbiyasi to'g'risida nazariy, pedagogik masalalar, mashqlar yechishni yo'lga qo'yishni kun tartibiga qo'yimoqda. Bunday ma'rifiy targ'ibot ishlari ota-onalarning bola tarbiyasidagi ijtimoiy faolligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu ishga pedagogikani chuqur o'zlashtirgan tajribali o'qituvchilarni jalb qilish uning samaradorligini yanada oshiradi.

Yuqoridagi tadbirlarga yana qo'shimcha «Onalar maktabi», «Otalar maktabi» ilg'or yoki oilalardagi noxush tajribalarni o'rganish bo'yicha konferentsiyalar, oilalararo musobaqalarni tashkil etish, xalq pedagogikasi talablari va an'analar asosida tarbiyalash kabi tadbirlar ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirishga, to'ldirishga va takomillashtirishga bevosita amaliy yordam beradi.

Yana ilmiy, ruhshunoslar jamiyati, maktab ota-onalar qo'mitasi, oilaga yordam beruvchi jamoat tashkilotlari, gazeta, jurnal, radio, oynai jahon eshittirishlari, ko'rsatuvlari ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishda olimlarning tavsiyalari, xalq pedagogikasi g'oyalari, tajribalar, ilg'or mehnat jamoalari, faxriylar maslahatlari, rivoyat, hikmat, xadis, maqol va din materiallaridan maqsadli foydalanilsa, uning samaradorligi yanada ortadi.

Ota-onalarning bola tarbiyasiga doir o'z bilimlarini oshirib borishlari, bola tarbiyasida talabchanlik, ota-onalar keksa yoshdagi kishilar va bolalarning ahilligi, kichiklarga g'amxo'rliqi kabi omillar oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Bularsiz oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatlarga erishish mushkul.

Har bir oilada bola tarbiyasi yuzasidan ota-onalarda konkret istiqbolli maqsad bo'lishi kerak. Bola hayot haqida tasavvurni birinchi navbatda oilada ota-onasi, buva, buvi, aka-opalaridan oladi. Agar davlat ta'lim-tarbiya muassasalari bolaga bilim berib tarbiyalasa, ota-onalar bolalar bilan birga yashab, ularni har jihatdan tarbiyalaydilar ham. Hamma gap shundaki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanmay, balki oilaning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, ota-onalarning shaxsiy namunasi, axloqi va amaliy faol harakatlari bilan bevosita hal etiladi. Bunda ota-onalarning katta yoshdagi kishilarning bolalar tarbiyasi yuzasidan o'z ma'suliyatlarini va burchini chuqur his qilishlari yetakchi masaladir. Yana ham konkretroq qilib aytganda, oila doirasida ota-onalarning o'zaro bir-biri bilan ijobiy munosabatlari, bolalarni to'g'ri tarbiyalashning birinchi va zaruriy sharti hisoblanadi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «...Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatlarimiz alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'liqdur. Harakatli kishilar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yolqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib xorlikda qolurlar», -deb juda o'rinli ta'kidlagan. Bizningcha bu fikr bevosita ota-onalarning oilada bolalarni tarbiyalashdagi harakatiga, g'ayratiga, faolligiga bog'liq desak to'g'ri bo'ladi. Haqiqatan ham ba'zi ota-onalar ham o'zlarini va bolalarini tang ahvolga solishadi.

Bayon qilingan fikr va mulohazalar ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Bular:

1. Bola tarbiyasi ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligiga bog'liq.
2. Ota-onalar savodxonligini oshirishda o'rta umumiy ta'lim va boshqa shakldagi maktablarning roli beqiyosligini amalda bajarish.

3. Bolalar tarbiyasida oilada ota-onalarning shaxsiy namunasi, obro'sini, so'z va ish birligini ta'minlash dardkor.

4. Maktabning tarbiya markazi rolini o'ynashi uchun o'qituvchi va ota-onalarning umumiy maqsad va vazifalarini uyg'unlashtirgan hamkorlikdagi faoliyatlarini rejali tashkil qilishga erishish.

5. Ota-onalar orasida oilaviy, ijtimoiy tarbiyaviy muhitni sog'lomlashtirish uchun oila, mahalla, maktab jamoatchilik va jamoat tashkilotlari aloqasini mustahkamlash hamda dastur asosida ishlovchi ota-onalar ma'ruzalari, dorilfununlari faoliyatlarini yo'lga qo'yish.

6. Ota-onalar tarbiyaviy madaniyatining samarasi ta'lim-tarbiya muassasalari, ota-onalar yig'ilishlari mazmuniga ham bog'liq.

7. Oila tarbiyasining samarasi ota-onaning bilimdonligi, umumiy rahbarligiga va tashkilotchiligi bilan amalga oshiriladi va hokazo.

Xalqimizda yomonlikka qarshi kurashish bo'lmagan joyda yaxshilik tug'ilmaydi degan hikmati mavjud. Bu hikmat mazmunini oila tarbiyasiga tadbiiq etish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham oilada ota-onalarning bola tarbiyasi haqida ma'lumotini tashkil qilish, oshirish, to'ldirib borish va takomillashtirish bolani etuk qilib tarbiyalashning tarkibiiy qismi bo'lmog'i dardkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ota-onalarning bola tarbiyasi haqida ma'lumotlar qaysi rasmiy manbalarda va adabiiyotlarda o'z ifodasini topgan?
2. Nima uchun ota-onalarga bola tarbiyasi haqida bilim berishob'ektiv zarurat bo'lmoqda?
3. Nima uchun ota-onalarga ma'lumot berish davlat ahamiyatiga ega?
4. Pedegog-psixolog olimlar xulosalari asosida ota-onalarga pedagogik bilimlar berishda qanday tadbirlar amalga oshirilishi lozim?
5. Ota-onalarga pedagogik bilimlar berishning qanday shakllari mavjud?
6. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishda qanday muammolar mavjud?
7. Ommaviy axborot vositalari xususan oynai jahon ko'rsatuvlari orqali ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish mumkinmi?
8. Nega ota-onalar uchun maxsus pedagogik-psixologik jurnal tashkil etish lozim?
9. Siz oilaning tarbiyaviy imkoniatlirini qanday tushunasiz?
10. Nima sababdan ba'zi ota-onalar oilaning tarbiyaviy imkoniatidan foydalana olishmaydi va bu sohada qanday muammolar bor?

OTA-ONALARNING O‘Z BOLALARIGA TA‘SIR KO‘RSATISH QOIDALARI VA USULLARI

Tong. Oilalarni tiplarga bo‘lish va ularning ish mazmuni.

Bu qismi metodik qism. U ota-onalarga bola tarbiyasida qanday yo‘l tutish kerak? Ota-onalarning o‘z bolalari haqida qanday nazariy bilimlarga ega bo‘lish kerak? Ota-onalarning o‘z bolalariga qanday ta‘sir ko‘rsatish qoidalari va usullari haqida bilish kerak? Kabi savollarga javob qaytaradi va ota-onalarning pedagogik ma‘lumotini va madaniyatini tarkib topdirishga yordam beradi.

Siz uyg‘ondingiz, bugungi kun uy tashvishlari bilan bandsiz. Miyangizda bugun qiladigan ishlarning zanjiri hosil bo‘ladi, bu ishlar juda ko‘p, ular katta va kichik, muhim va arziyas, yoqimli va zerikarli, lekin kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar. Bularning ichida eng asosiysi farzandingiz. Uni uyg‘otish, qornini to‘yg‘izish, kiyim boshlariga qarash, maktabga jo‘natish kerak. Siz o‘z harakatlaringizni o‘ylab ko‘rmaysiz: hammasi allaqachon ko‘nikmaga, odatga aylanib qolgan. Bular qanday odatlar? Farzandingiz nonushta tayyorlashda ishtirok etadimi? Dasturxon ustidagi narsalarni yig‘ishtirishda yordam beradimi? Biror narsani esingizga soladimi? Biror narsani va‘da qiladimi? U maktabga qanday kayfiyat bilan ketdi? Qanday chehra bilan xayrlashadi? U sizning oxirgi tanbehingizga qanday javob qildi? Siz ishga qanday kayfiyat bilan ketayapsiz?

Pedagog mutaxassis va ayniqsa ota-onalarga tushunarli bo‘lish uchun oilalar hayoti mazmunini uch tipga bo‘lib o‘rganamiz. Ertalabki vaqt nihoyatda tig‘iz. Biz o‘zimizga tanish bo‘lgan barcha oilalarni asosan uch tipga bo‘ldik.

1. Ideal tip oila. Tong unga qoniqish, quvonch, umid baxsh etadi.

2. O‘rtacha tip oila . Tong bu oilani xafa qilmaydi, hamma narsa o‘z navbati bilan boradi, har kim o‘zi bilan band bo‘ladi, o‘z vazifalarini bajaradi.

3. Urushqoq-ta‘sirchan tip oila. Bu tip oilada dastlabki uchrashuvlar oshkora yoki yashirin noroziliklar bilan to‘la bo‘ladi. Mazkur oilalarning yutuq va kamchiliklarini ko‘rish uchun munosabatlarning barcha modelini tuzib chiqishga harakat qilamiz.

Ideal-model tip oila. Siz farzandingizning yengilgina qo‘l tekkizishi bilan uyg‘onasiz. U bunday deydi: «Oyi, turing vaqt bo‘ldi. Men dazmol va choynakni qo‘yib qo‘ydim. Nonushta dasturxonda. Bugun kelishib qo‘yganimizdek, ertaroq turdim, nazorat ishga tayyorlandim». Ota o‘zining ishidagi qiyinchiliklar haqida gapirdi, lekin baribir o‘ylab qo‘ygan rejalarimni amalga oshishiga muvaffaq bo‘lishini ta’kidlaydi. O‘g‘li ham bugungi kun oson emasligini aytdi. U otasiga: «Tashvishlanmang, hamma ishlar joyida bo‘ladi», deydi. Buvisiga esa: «Bugun ko‘cha sirpanchiq do‘konga bormang. Hamma narsani yozib bering, o‘zim olib kelaman», oyisiga: «Ishga boravering, kech qolasiz, stol ustini o‘zim yig‘ishtiraman», deydi.

O‘rtacha model tip oila. Birinchi bo‘lib buvisi uyg‘onadi. Nonushta tayyorlanadi. Oyisi turadi, dazmol qo‘yib o‘g‘lining shimini dazmollaydi. Erini uyg‘otadi, ota o‘rnidan turadi, yuvinadi, bir o‘zi nonushta qiladi, indamay ishga ketadi. Ona o‘g‘lini uyg‘otadi: «Tur, vaqt bo‘ldi» o‘g‘li: «Yana ozroq uxlab olay». Onasi buvisi bilan nimanidir gaplashadi. Biroz urishib olishadi. Buvi: «Uning vaqti bo‘ldi». Nihoyat, bola o‘rnidan turadi, yuvinadi. Indamay nonushta qiladi, maktabga ketadi. Ona o‘g‘lini o‘pib kuzatmoqchi bo‘ladi, u bo‘lsa o‘zini olib qochadi.

Negativ model tip oila. (Janjalli variant). Bu model antipatiya (ko‘ngilsizlik), tanglik, janjallar zanjiridagi model. Uyg‘onish yarim soat davom etadi. Nevarasi oyog‘i bilan tepib yuborgan, kampir yig‘laydi. Ona: «Qo‘ysangizchi yig‘lashni», - deydi. Nihoyat, o‘g‘lining ko‘rparasini olib tashlaydi, o‘g‘li kerishadi va yotaveradi. «Bu qanaqasi? -deb g‘azablanadi ona -Bu yana qachongacha davom etadi?». «Mening qornim og‘riyapti», deydi o‘g‘li. «Aldayapsan», baqiradi onasi. «Men aldayotganim yo‘q, sizning o‘zingiz aldayapsiz», deb javob beradi o‘g‘li o‘rnidan turar ekan.

«Men ovqat yemayman», deb baqiradi, u yuvinib bo‘lgach, «Birinchi darsga bormayman», -janjal. «Bu ko‘ylakni kiymayman», - janjal. Uyda asabiy bir holat hukmron, noxush ovozlari eshitiladi, va hokazo.

Agar sizning munosabatlaringiz «ideal model tip oila» sxemasi asosida tuzilgan bo‘lsa, bu kitobchani yopib qo‘ya qoling, u sizga hech narsa bermaydi.

Agar sizning munosabatlaringiz qaerdadir ikkinchi va uchunchi modellar tutashgan joyda bo'lsa, sizning kamchiliklaringiz sabablarini birgalikda o'ylab ko'ramiz, ularni ko'rishga oila tarbiyasidagi nuqsonlarni bilib olishga harakat qilamiz. Uxlab yotgan bolaga nazar tashlang. Qanchalik soflik va osoyishtalik mujassam. Sizning farzandingiz qanchalik go'zal. Ana shu go'zallikka nazar tashlang.

Farzandingizda bor bo'lgan go'zal narsalarni barcha yaramas narsalardan ajrata biling.

Bu go'zal narsalar, uning har bir kishiga xos bo'lgan tabiiy (potentsial) imkoniyatlaridir. Faqat shunday sharoit yaratish kerakki, yomon xulq-atvor, liboslari albatta yechib chiqarib tashlanishi kerak. Uni bola o'zi yechib tashlashi kerak. Aqlli o'z vaqtida o'rnidan turmaslik sabablarini o'ylab ko'ramiz. Birinchi sabab-fiziologik sababdir: bola uyquga to'ymagan. Demak, u kech yotgan yoki ancha vaqtgacha uxlay olmagan, ehtimol, sof havoda kam bo'lgan. Umuman, axloqiy tarbiya bilan shug'ullanar ekansiz, bolaning jismoniy kamolotini, xulq-atvorining fiziologik omillarini esdan chiqarmang.

Ikkinchi sabab - axloqiy sabab: bola boshlanayotgan kundan tashvish, noqulaylik, musibat, tanbeh, jerkishdan boshqa hech qanday yaxshi narsani kutmaydi. Dars tayyorlamagan yoki yomon tayyorlagan, demak, o'qituvchi doskaga chiqarib qolmasin deb cho'chidi, kundalikda ikki baho oladi, o'qituvchining qat'iy nasihatlarini, sinfdoshlarining g'azabni qo'zg'atuvchi kulgulari va hokazo.

Farzandingizga noxush sezgilarning ayanchli mashaqqatidan qutulishda yordam bering.

Shuni esda tutingki, bolaning qo'polligi va asabiylashuvi pedagogik jihatdan o'z holicha tashlab qo'yilganligi, sizning bola bajaradigan ishga beparvo munosabatda bo'lishingiz natijasidir. Urishish, do'q-po'pisa, jazo choralari faqat odamni rahmsiz qilib qo'yadi. Shuning uchun haddan ertaroq turish istagi bo'lmaydi.

Bu yerda o'g'il yoki qiz bolani shunchaki ayash kerak emas, shunchaki erkalatish, tinchitish kerak emas, balki unga amaliy yordam berish kerak.

Agar bolani o‘zi o‘zgartirishning sababchisi bo‘lmas ekan, hech qanday tashqi o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi.

Shodlik mexanizmi.

Har qanday bolaning o‘z savimli mashg‘uloti bo‘ladi. Bolalar o‘zlari bajargan ishdan quvonish va undan qanoat hosil qilish qobiliyatiga egadirlar. Mana shu qobiliyatdan foydalaning. Shunday shodlikni bolaning o‘zida tayyorlang. U bajargan faoliyati (o‘yin, o‘qish va ish)dan shodlansin. Undan so‘ng bolada ijobiy o‘zgarish bo‘ladi.

Keskin o‘zgarishlar bo‘lishini kutmang.

Umuman, tarbiyalamaslik xavfli bo‘lganidek, haddan tashqari zo‘r berib tarbiyalash ham xavflidir. Ba‘zan ota-ona bolada keskin o‘zgarishlar bo‘lishini kutishadi, bu o‘zgarishlar esa hali yetilmagan bo‘ladi. Shuning uchun o‘zgarish asta-sekin o‘z vaqti bilan sodir bo‘ladi. Ota-ona bu o‘zgarishni sabr-qanoat bilan kutishlari ma‘qul.

Rag‘batlantirish mexanizmi.

Bola o‘z shodligini ota-onasi yoki tengdoshi bilan baham ko‘rar ekan bundan faqat foyda bo‘ladi. Sizning bolani tushunishingiz va xayrihohligingiz uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Oilada sog‘lom muhitni yaratishga yordam beradi. Agar bola o‘z vaqtida turib, sizning ayrim talablaringizni e‘tirozsiz bajarib qo‘ygan bo‘lsa, maqtab qo‘yishga qizg‘onmaslik kerak. Siz bunday deyishingiz kerak: «O‘zing ham vaqtida turishing va hamma narsani qilishing mumkin ekan-ku» va hokazo. Bu usul bola tarbiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mehnat va lazzatlanish birligi.

Mamnunlik foydali va zararli bo‘lishi mumkin. Agar u bolada nosog‘lom mayllar hosil bo‘lishiga, tekinxo‘rlikka olib kelsa, u holda zararli bo‘ladi. Agar mamnuniyat mehnat bilan, muskulning zo‘riqishi yoki aqlning ishlashi bilan bog‘liq bo‘lsa, foydali hisoblanadi. V.A.Suxomlinskiy: «Mehnatdagi muvaffaqiyat quvonchi, mehnatning faxr tuyg‘usi, shu o‘tni oziqlantiruvchi yagona manba sanaladi» -deb o‘rinli ta‘kidlagan.

Xullas bola shug‘ullangan ya’ni o‘yin, mehnat, o‘qish mashg‘ulotidan lazzatlanishi, quvonishi yaxshi.

Mayda-chuyda narsalardan o‘zingizni chetga tortmang.

Tarbiyada mayda-chuyda narsalar yo‘q degan formula hammaga ma’lum. Sizning kundalik muomalangizning borishi ba’zan mayda-chuyda narsalar asosida quriladi. Agar farzandingiz ertalab qulog‘ini yuvishini istasangiz, buning uchun uni majbur etib yuvintirishingiz shart emas. Bu usul bilan ko‘p vaqtgacha uning yuvinish istagini bo‘g‘ib qo‘yasiz. Lekin bola birinchi marta o‘z ixtiyori bilan ho‘l qo‘llari bilan quloqlarini ushlar ekan, unga albatta: «Sen hatto sovuq suvdan ham qo‘rqmas ekansan. Ikkala qulog‘ingni o‘zing yuvdingmi» deyishingiz kerak. V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Bolalarga mehnat quvonchi, o‘qishdagi yutuq quvonchini berish, ular qalbida faxrlanish hissini, o‘z izzat-nafsi hissini uyg‘otish-bu tarbiyaning eng birinchi vazifasidir», -deb ta’kidlagan.

Ota-ona bola tarbiyasida mayda narsa yo‘qligini bilishi kerak. Mayda narsadan o‘zingizni tortmasligingiz darkor.

Foydali ehtiyojlarning paydo bo‘lishi.

Uydagi turli-tuman vazifalarni bajarish ehtiyoji yaqin kishilarga yordam berish, bolaga quvonch baxsh etish istagi bilan bog‘langan. Ota-onalar bolaning oilasi, o‘zi uchun foydali ehtiyojlarini, mayllarini orttirib borsalar, u to‘g‘ri tarbiyalanadi. Muhimi ota-onalar foydali ehtiyojlarni bug‘masliklari lozim. Shunda bola o‘z ishiga ijodiy yondoshish bilan tarbiyalanadi.

Farzandingizni erkalatishdan cho‘chimang.

Agar bolaga sizning samimiy munosabatingiz yetishmasa, u muqarar ravishda asabiylashadi, qo‘pollik qiladi, o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi. Bola erkalatib qo‘l tekizib qo‘yishingizni, yaxshi so‘z aytishingizni, samimiy qarashingizni kutadi. Erkalatishda saxiy bo‘ling. Faqat erkalatish va sizning samimiy mehribonligingiz biror sabab bilan munosabatingizda paydo bo‘lgan begonalik muzini eritishi mumkin. Sizning qo‘lingiz shunday sehrli ta’sir ko‘rsatish kuchiga egaki, u ba’zan so‘zdan ham, uzoq davom etuvchi suhbatdan, sovg‘adan ham qudratliroq ekanligini yodda tuting. «Hali hech kim, inson qo‘lining shifobaxsh kuchini o‘rgangan emas»

-degan V.A.Suxomlinskiy. Albatta bolani erkalatishning me'yori bo'lgani yaxshi. Erkalatishni o'z vaqtida, joyida qo'llash tarbiyaning asosiy talablaridan biri.

Pedagogik mamnunlik mexanizmi.

Siz farzandingiz bilan muomila qilishdan zavq olmasangiz, tarbiyaviy maqsadga erishmagan bo'lasiz. Tarbiya shunday bir ishki, u albatta mamnuniyat bag'ishlashi lozim.

Aytaylik, sizda farzandingizni muayyan hayot rejimiga o'rgatish fikri paydo bo'ldi. Lekin hech mahal faqat bitta maqsadning o'zi kifoya qilmaydi. Pedagogik maqsadlarning xususiyati, shundan iboratki ulardan har biri o'ziga xos maqsadlar bog'lamida tashkil topadi. Siz aslida bitta maqsadni oldingizga qo'yasiz, haqiqatda esa u bir-biri bilan bog'lanib ketgan va parallel rivojlanuvchi niyatlar, qobiliyatlar, g'ayratlar orzular kabilarning butun bir tizimi bilan bog'langan bo'ladi.

Agar siz farzandingizni ertalab o'z vaqtida o'rnidan turib, o'z o'rnini yig'ishtirishga erishsangiz, shu bilan bir qatorda boshqa ko'plab bolada yaxshi o'zaro munosabat o'rnatishga, unga sizning mulohazangizga to'g'ri javob berishni o'rganishga, unda ma'suliyat, intizom tuyg'usini tarbiyalashga, muntazam mehnat qilishga, aniq ish rejimiga o'rgatgan bo'lasiz.

Oldinlab ketish printsiipi.

Odatda, ota-onalar bolalarda ro'y berayotgan o'zgarishlarni sezmay qoladilar. Bolalarning ham ota-onalaridan o'zlariga bo'lgan munosabatni o'zgartirishini talab qilishlariga to'g'ri keladi.

Shunday qilish kerakki, farzandingiz sizni metodlarni o'zgartirishni talab etmasin, balki o'zingiz o'z talablaringizni o'zgartirib va murakkablashtira borib, farzandingiz oldiga o'z xulqini o'zgartirishni zarur qilib qo'ying. Sizning bola tarbiyasi haqidagi fikrlaringiz, metodlaringizdan orqada qolgandan ko'ra, bolaning o'sishidan bir muncha oldinlab ketgani yaxshi. Masalan: «Mana endi sen katta va aqlliroq bo'lib qolding, mana bu narsalarni endi o'zing qilishing kerak», -deb bolani oldinlab, ilgarilab ketishga da'vat etish oila tarbiyasida juda foydali.

Bolalar bilan nizolanishdan qo'rqmang va uni o'z maqsadingizga yo'naltirishga harakat qiling.

Ziddiyatlarni hal qilmasdan muomala bo‘lmaganidek, nizolarsiz tarbiya ham bo‘lishi mumkin emas. Nizo (kelishmovchilik) -qarashlar, didlar, istaklar, tasavvurlarning, fikrlarning to‘qnashuvidir. Nizo hamisha nimanidir qayta ko‘rib chiqishidir.

Aytaylik, farzandingiz o‘quv mashg‘ulotlariga ziyon yetkazgan holda fantastikani o‘qish bilan shug‘ullanadi. Siz rejimning buzilishi, mashg‘ulotlarning bajarilmasligi xavfini oldini olishga intilasiz, -bu sizning harakatingizdagi ijobiy holdir. Lekin, siz farzandingizdan kitobchani tortib olib, nimadadir tavakkal qilasiz, bu bilan uning ta‘qiqlangan narsaga intilishi, tag‘in ham ko‘proq kuchayishi, yoki aksincha, kitobga bo‘lgan qiziqishiga putur yetishi mumkin.

Lekin bola ongining bir chekkasida dars qilish kerak, ertalab vaqtliroq turish lozim, degan fikr-majburiyat tinchlik bermaydi. Shuning uchun ham, u o‘zining kitob o‘qishiga halal bergan kishi bilan janjallashishga tayyor. Ko‘rinib turibdiki, nizo ko‘p tarmoqli. Agar siz farzandingizga «To‘xtat!» deb aytib, o‘qiyotgan kitobni qo‘lidan tortib olsangiz va chiroqni o‘chirsangiz, kam narsaga erishasiz. Yuzaga kelgan ziddiyatni hal etishning boshqa bir usulini sinab ko‘ring. Farzandingiz yoniga yaqinlashib, undan «Bu juda qiziq kitob bo‘lsa kerak-a» -deb so‘rab ko‘ring. Bola kamdan-kam holda: «Halaqit bermang» deyishi mumkin. Agar bola biron narsadan zavq olsa, odatda o‘z quvonchi bilan o‘rtoqlashishga intiladi. To‘g‘rirog‘i, «Juda qiziqarli kitob» -deb javob beradi. Siz unga: «Ehtimol eng qiziq joyiga kelib to‘xtagan bo‘lsang kerak-a?» -deb murojaat qilishingiz kerak.

«Kitob haqiqatdan ham qiziqarlimi?» -deb yana savol bersangiz, u siz bilan so‘zlasha boshlaydi. Bu munosabat juda muhimdir: Bola siz aytgan qarorga o‘zi mustaqil ravishda kelishi va kitob o‘qishni ertagacha kechiktirishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar iloji boricha bola bilan nizoga bormasdan tadbirli bo‘lishlari va o‘z maqsadlariga erishishlari maqsadga muvofiq.

Ranjigan kishi rolini bajarmang.

Ranjib yurish katta yoshdagi kishini yerga uradi, uning mavqeini zaiflashtiradi. Nizoda katta yoshdagi kishining mavqei baland bo‘lishi lozim. Nizoni hal etishni cho‘zib yuborish kerak emas, balki tezroq insonparvarlik bilan bir yo‘l

topish kerak. Shunday voqea ham bo'lishi mumkin. Siz axlat solingan chelakni olib chiqib ketasiz, farzandingiz esa orqangizdan: «Bir minut shoshilmay turing. Bu chelakni o'zim olib boraman», -deb e'tiroz bildiradi. Ciz chelakni bo'shatib qaytasiz, bola esa sizga aybdorlarcha qarab qoladi va uyaladi. Arzimas narsalar bilan bolangizning izzat-nafsiga tegishga harakat qilmang. Unga xotirjamlik, samimiylik bilan: «Mayli, keyingi gal o'zing men eslatmasdan axlatni bo'shatib kelasan», -deysiz. Shu bilan gap tamom. Agar farzandingiz o'zini oqlamoqchi bo'lib biror sababni aytsa, astagina uni to'xtating: «Bo'ldi, yetar». Keyin boshqa ishlarga kirishib ketavering. Bir necha to'qnashuvlar bo'lishini kutib turing va navbatdagi hato vaziyatni tahlil qilib tushuntiring. Aksincha shundan keyin nizolarni tushuntirish, uni urishish, unga qilgan ishining noto'g'riligini isbotlab berish kerak. Shunda bola sizning ranjimaganligingizni tushunib yetadi va tushunmovchilik bo'lmaydi.

Bolaga sabr-toqat bilan o'rgatish kerak.

Aytaylik, siz ko'p narsalarni mustaqil o'rganib olgansiz: tez nonushta tayyorlashni, uyni, ish joyini yig'ishtirishni bilasiz, bu ko'p yillar davomida vujudga kelgan. Bolalarni bu ishlarga sabr-toqat bilan o'rgatish kerak.

Bolani ko'p vazifalarni bajarishga bo'lgan intilishini qondiring.

Biror o'yin o'ynayotgan bolalar o'zlarini qanday tutishlarini eslang. Agar o'yinda bolalardan biriga yordamchi vazifalar to'g'ri kelib qolsa, unga o'yinning qizig'i qolmaydi. Ota-onalar ko'pincha buni sezmagan holda unga hadeb «Uni keltir», «Buni olib kel», «Uni yop», «Falon joyga borib kel», deb yugurdak bola qilib qo'yishadi. Axir unga «Yaxlit» vazifani yuklashi mumkin-ku. Bolani har turli yumushlarni bajarishga o'rgatish foydali. Shuning uchun bolaning ko'p vazifalarni bajarishga tayyorlab borish uning har tomonlama shakllanishiga yordam beradi.

Baqirish bilan tarbiyaning barcha natijalarini yo'qqa chiqarasiz.

Ertalab baqirishni eshitgan bola 5-6 soat dars davomida tinch o'tira olmaydi. Buning ustiga ustak uning asabiylashish uning o'rtoqlari, o'qituvchi bilan bo'lgan muomalada namoyon bo'ladi, ya'ni u qo'pollikka, haqoratga, janjalga olib keladi. V.A.Suxomlinskiy: «Tarbiyachichining baqirishi, bolani dovdiratib garang qilib

qo'yadi», -deb ogohlantirgan. Oilada ota-onalar ham bo'lar-bo'lmasga asabiylashishlari to'g'ri emas. Ota-ona ham bundan xulosa chiqarishi kerak.

Iltimoij hayotda, oilada, kishilar o'rtasida ham ixtilofli holatlar bo'lishi tabiiy. Ixtilof bu manfaatlarning turli xilligi, bir-birini anglamasligi, qiziqishlarniung mos kelmasligi, qarashlarning tulichaligi, bir-birini yoqtirmasligi, shaxslararo ixtiloflar, guruhlarari ixtiloflar ko'rinishuda namoyon bo'ladi.

Oilada ota-onalar ham bola tarbiyasida ixtilofli holatlarni tushinishi, bilishi, uning oldini oilshi, bundan to'g'ri xulosa chiqarishi, ixtilofli holatlarni to'g'ri boshqarishi juda ham muhim.

Farzandingizning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish sizning asosiy vazifalaringizdan biri ekanligini unutmang.

Oilada bolalarning jismoniy chiniqishlariga qulay shart-sharoit yaratishlari maqsadga muvofiq. Bolaning ertalabki mashqlarni bajarishga odatlantirishlari va sport o'yinlarini tashkil qilishga yordam berishlari foydali. Ayniqsa bolaning oziqlanishiga alohida e'tibor berishlari ular sog'lig'ining zaruriy sharti hisoblanadi. Bolaning sog'lig'i to'g'risida g'amxo'rlik qilish ota-onalarning asosiy vazifasidir.

Mustaxkamlash uchun savollar

1. Nima uchun oila pedagogikasida oilalar tiplarga bo'linib o'rganiladi?
2. O'rtacha, urishqoq-janjalli tip oilaning xususiyatlarini izohlang?
3. Nima uchun ota-onalar bolaga ta'sir ko'rsatish qoidalari va usullarini bilishi kerak?
4. Ota-onalar bolalarga ta'sir ko'rsatishdan sutka davomida qanday foydalanishlari kerak?
5. Janjalli oiladagi bolalarga ta'sir ko'rsatishning qanday metodlari mavjud va ular oila hayotini o'zgartirishi mumkinmi?
6. Tarbiyasi qiyin yoki o'z holiga tashlab qo'yilgan oilalar ota-onalariga qanday yordam ko'rsatish mumkin?
7. O'rtacha, janjalli tip oilalar qanday sabablarga ko'ra paydo bo'ladi va ularga kimlar aybdor?
8. O'rtacha tip oila boshliqlariga siz qanday maslaxat va yo'l-yo'riqlar berasiz?
9. Nima uchun ota-onalar bolalarga ta'sir ko'rsatish usullarini bilishi shart?
10. Nima uchun ota-onalarning bolalarga ta'sir ko'rsatishi oila tarbiyasining samaradorligini ta'minlaydi?

OTA-ONALARNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI OSHIRISH, TAKOMILLASH TIRISH – BOLANI TO‘G‘RI TARBIYALASHNING ZARURIY SHARTI

Farzandingizga insonparvarlik bilan yondoshing. Pedagogik insonparvarlik bola shaxsining rivojlanishidagi ziddiyatlarni hal etishni bilishga, hatto eng qarovsiz bola ham o‘zida ko‘pgina ijobiy xislatlarga ega ekanligiga ishonishga asoslangan. Insonparvarlik printsipligiga tayanib ish ko‘rish. Bir qarashda hammaga yaxshi ma’lum, tajribada ko‘plab tekshirilgan haqiqatga o‘xshaydi. Lekin uni osonlik bilan shunchaki amalga oshirib bo‘lmaydi. Men ko‘p marta shu narsaga ishonch hosil qilganman, oilada bolalarga insonparvarlik bilan munosabatda bo‘lgan oilalar bolalarning ko‘pchiligi pirovard natijada yaxshi kishilar, ajoyib ishlab chiqaruvchilar va g‘amxo‘r oilaparvar kishilar bo‘lib yetishgan. Masalan Samarqad viloyati, Bulung‘ur tumani Sho‘rbedana qishlog‘idagi Suyun aka Xusanovning xonadonida ana shunday sog‘lom ma’naviy muhit doim hukumron. Ko‘pchilik insonlar bu xonadonda doimo fayz borligini ta’kidlashadi. Farzandlari ham yaxshi kishilar, ajoyib ishlab chiqaruvchi mutaxassislar bo‘lib yetishgan. Albatta bu Suyun aka va Buvsara yanga tarbiyalari mahsulidir.

Chehrasidan inson zotiga xos bo‘lgan go‘zallik aks etib turmaydigan bola dunyoda yo‘q. Bolalar xarakteriga xos bo‘lgan xususiyat shuki, bola haddan tashqari ko‘ngilchan bo‘ladi. Endi toshyurak bola ham hamisha qiziqirli ishlarga qo‘shiladi, uning ko‘zlari yonib ketingizdan ergashadi. Demak, sizning farzandingiz shu qadar ko‘p insoniy xislatlarga egaki, bu xislatlar inson qalbining haqiqiy xazinasiga aylanmog‘i uchun kuch-g‘ayrat sarflanmaslik insofdan emas, uni ota-ona insonparvarlik asosida tushunishi va boladagi qobiliyatni tarbiyalamog‘i kerak. Buning uchun uni inson deb bilmog‘i va unga shunday munosabatda bo‘lishi eng to‘g‘ri yo‘ldir. Bola juda kichkina bo‘lsa ham unga inson deb qarab va insondek munosabatda bo‘lish lozim.

Aniq diagnoz qo‘ying.

Agar farzandingiz yomon o‘qiydigan bo‘lsa, ora-sira darslarga bormayotgan bo‘lsa, demak, u o‘z kuchiga ishonchini yo‘qotgan bo‘ladi. Demak, u o‘qishdan

shunchalik orqada qolib ketganki, ularni mustaqil bilib olishga qurbi yetmaydi. U o'qituvchisi uy vazifasini so'rab qolishidan qo'rqishi azoblaydi, o'rtoqlaridan uyaladi. Agar farzandingiz sizga uy-ro'zg'or ishlarida yordam bermas ekan, buning bir necha sabablari bo'lishi mumkin. U o'zidan talab qilinayotgan narsani bajara olmaydi. U mehnat qilishni bilmaydi, oilada yaqin kishilarga yordam berish odat tusiga kirmagan. Demak, farzandingizning o'zlashtirishi yoki uyda bajaradigan ish bo'yicha duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda yordam berish kerak. Bu yordam shunday bo'lishi kerakki, toki u sizning bergan amaliy yordamingiz bilan o'qishda o'zlashtirishga erishsin. Bajara olmaydigan yumushlarni o'zi mustaqil bajara olsin.

O'z farzandingizning o'qishdagi tashvishlarini bilib oling.

Ota-onalar, odatda, bir xil xato qilishadi. Yordam ko'rsatish o'rniga, bir qator talablar qo'yishadi: «Dars tayyorlashga o'tir!», «Qachon darsingni qilasan?». Bularga javoban bolalarga xos odatdagi «Hali ulguraman» yoki «Hozir!» yoxud «Bizga hech qanday topshiriq berishmadi» degan oqlovchi so'zlarni eshitasiz. Ta'lim jarayoni - inson hayotidagi eng qiyin ishdir. Ayniqsa, qiyin ishda esa bolalarning o'zini qoldirib bo'lmaydi. Ota-ona bolaga yordam berishi bilan uning o'quv materialini o'zi o'zlashtirishiga erishish juda muhim. Uy ishini to'la bajarib o'rganish uchun unga metodik jihatdan yo'l-yo'riqlar ko'rsatishi eng to'g'ri yordamdir.

Kichik narsadan boshlang.

Farzandingizga hech bo'lmaganda o'z kuchiga ozgina bo'lsada ishonch tuyg'usini singdirishni o'zingizning birinchi vazifangiz qilib qo'ying. Chunki bolada ishonch bo'lsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi. Agar u arifmetikadan zaif bo'lsa, u bilan birga avval uning qo'lidan kelgan misol va masalalarni yeching. U topshiriqni bajarib bo'lgach, bu unchalik qiyin emas ekan desa, unga «Mana, ko'rdingmi, agar sen muntazam ravishda vazifalarni bajarib bersang, hamma masalalarni yong'oq chaqqandek tez yechib qo'yasan, o'zingga ham doimo oson bo'ladi», -deb aytib qo'ying. Bu usul bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini tarkib toptiradi. Bu bola tarbiyasida juda muhim.

Asabiy qattiqqo‘llik va nizolardan holi bo‘ling. Farzandingiz bilan shug‘ullanish jarayonida o‘zingizni, gapingiz ohangini kuzatib boring. Farzandingizning ilk yutug‘ini, albatta, ta’kidlang!

Bolada ishonch tuyg‘usini o‘yg‘otish maqsadida, hatto eng kichik birinchi yutuqni ham ta’kidlab qo‘yish kerak. Yutuq bolani insoniy qadr-qimmatni, mehnatsevarlik, mustaqillik va o‘ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchi bilan maslahatlashishni unitmang. Chunki u bolangiz haqida eng to‘g‘ri ma’lumot olishingizga amaliy yordam beradi. Shuning uchun farzandingizning yutug‘ini aytish bilan uning shug‘ullanayotgan faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bu usul bola tarbiyasida yaxshi natijaga olib keladi. Bola bilan birga bo‘lganda, shug‘ullanganda asabiy qattiqqo‘llik qilmang, chunki bunday hol ham o‘zingizga foyda keltirmaydi. Shuning uchun bola bilan muomila, munosabatlaringizda asabiy qattiqqo‘llik qilish yaxshi natijaga olib kelmaydi. Agar asabiy qattiqqo‘llik qilsangiz farzandingizni o‘zingizdan uzoqlashtirgan bo‘lasiz. Ayniqsa, u bilan gaplashganda o‘z ovozingizni ko‘tarib, balandlashib ketmasligiga asosiy e’tiborni qaratishga harakat qiling. Shunda farzandingiz siz bilan me’yorida muomala qiladi.

Farzandingizga yordam bera oladigan hamma kishilarni jalb etishga harakat qiling.

Mustaqillikka o‘tish ko‘zga tashlanmaydigan bo‘lishi kerak. Bolani chinakam mustaqillikka asta-sekin o‘rgatib borish kerak. U sizning rahbarligingizda o‘quv materialini erkin ravishda bilib olishga o‘rgangandagina uning mustaqil harakatlarini to‘la-to‘kis rag‘batlantirishga o‘ting. Bolaga yordam bera oladigan hamma kishilarni ya’ni: o‘rtog‘ini, o‘zgalarni, yoshi katta tanishlarni ham jalb etsangiz bundan faqat foyda bo‘ladi. Bu borada mahalla faollari, a’zolarining ko‘pchiligidan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Misol uchun uning xulq-atvorini nazorat qilish yoki mahalla bolalari bilan o‘yin, mehnat kabi faoliyatlarini tartibga keltirish mumkin. Chunki mahalladagi katta-kichiklar bolaning u yoki bu faoliyatini kuzatish imkoniga egalar.

Farzandingiz mashg‘ulotlarini ochiq havoda bo‘lishini jismoniy mashqlar bilan almashtirib turishni unutmang.

Maxsus tekshirishlarning natijalari shahar o'quvchilari ochiq havoda kam bo'ladi. Ikki soat o'rniga 30-40 daqiqa tasodifiy yuklamalarni bajarishadi. Buning natijasida bola organizmi aqliy ishlar bilan shug'ullanishga tayyorlanib bormaydi. Shuning uchun ularning ochiq havodagi mashg'ulotlarini jismoniy mashqlar bilan almashtirib turish foydali.

Farzandingizga ishonchsizlik bilan qarab, azob bermang.

Farzandingiz siz xohlaganingizdek ishlarni bajara olmasligi mumkin. Siz uning bajargan ishi, hatti-harakatidan qanoat hosil qilmasligingiz tabiiy bir holat. Chunki uning bilim saviyasi, ko'nikma va malakasi va tajribasi hali yetarli darajada emas. Shuning uchun siz farzandingizga ishonchsizlik bildirib, azob bermang. Aksincha hozirgi dastlabki urinishlari uning ilk yutug'i bo'lishi mumkin. Farzandingizning hozirgi natijasiga sabr-bardoshli bo'lsangiz, uning keyingi yutuqlarni qo'lga kiritishga zamin hozirlar. Ota-onalar farzandlariga ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lmagani ma'qul. Vaqt o'tishi bilan bola yo'l qo'ygan nuqsonlarni yo'qotadi va ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Oilada ota-onalarning sabrli bo'lishlari juda muhim.

Farzandingizning taqlid qilish qobiliyati ham tabiiy, ham ijobiy qobiliyat ekanligini esda tuting.

Nafaqat boladagi hatto katta yoshdagi odamda ham taqlid qilish tabiiy bir holat hisoblanadi. Inson taqlid qilish asosida o'ziga kerakli ko'nikma, tajriba va odatlarni tarkib topdiradi. Ota-onalar bola taqlididan uning tarbiyasida ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiq. Bolaga taqlidning ma'nosini tushunib bajarishga o'rgatishi, odatlantirishi kerak. Shunda uning taqlid qilishi uning barcha qobiliyatlarining rivojlanishiga imkon beradi.

Farzandingizni haddan tashqari himoya qilishdan saqlaning.

Ba'zi ota-onalar o'z farzandlarini tengdoshlari bilan bo'ladigan nizolardan himoya qilishga o'tadilar. Bunday holat bolaning o'zida bo'lgan nuqsonlarni ko'rmaslikka, o'z-o'zini tarbiyalay olmaslikka olib keladi. Qolaversa, bolalar tez nizolashib, tez bir-birini kechirishadi. Shuning uchun ota-onalar, kattalar uning tarafini olmaslikka harakat qilishlari kerak. Agar bolaning yonini olaverishsa, u

shunga o'rganib qoladi, mustaqil bo'la olmay qoladi. Muhimi bu borada bolani himoya qilishdan ko'ra, o'z haq-xuquqini himoya qilishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, ota-onalarning oilada tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirish, takomillashtirish farzandlarni to'g'ri tarbiyalashning, oilani mustahkam va barqarorlashtirishning shuningdek, mamlakatni ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lmog'i darkor.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Nega oilada ota-onalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishni, takomillashtirishni pedagogika va psixologiya bakalavrlar hamda ota-onalar bilishlari kerak?
2. Qaysi pedagoglar oilada onalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari haqida qanday fikr bildirgan?
3. Onalar o'z farzandlarini komil qilib tarbiyalash uchun asosan qaysi sifatlari bilan kuchli ta'sir ko'rsatishlari lozim?
4. Nima uchun oilada ota-onalar bolalarga ta'sir ko'rsatish qoidalari va usullarini bilishlari darkor?
5. Sizningcha ota-onalar yana qaysi sifatlari bilan bolaga samarali ta'sir ko'rsatishlari mumkin?

BOLA TARBIYASIDA OILA, TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARI, MAHALLA VA JAMOATCHILIKNING O'ZARO HAMKORLIGI

Oilaning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir.

Yosh avlodni komil inson qilib yetishtirishda oila bilan maktablarning, mahallaning, jamoatchilikning mustahkam hamkorligida aloqasini ta'minlamay turib, tarbiya sohasidagi ijobiy natijalarni qo'lga kiritib bo'lmaydi. Bu xususida Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Ma'lumki, azaldan o'zbek mahalalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, yetim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos

urf-odat va an'analar avvalombor mahalla muxitida shakllangan va rivojlangan», - deb bildirgan fikrlari bolaga hamkorlikda ma'naviy ta'sir ko'rsatishda hayotiydir. Axir oila mahallaning bir tarkibi hisoblanadi. Shuning uchun mahallaning oilaga tasirini ta'minlash amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Maktablar ota-onalarning pedagogik o'quvchini amalga oshiradi va bu borda o'zining tarbiyaviy imkoniyatlarni ishga soladi. Oila esa o'z navbatida o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda, zamonaviy fan asoslarini egallashni tashkil etishda maktab jamoalariga moddiy, ma'naviy jihatdan amaliy yordam beradi. Bugun barkamol o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ko'plab tarbiyaviy omillar ya'ni: maktab, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikdagi ta'siriga muhtojlik tobora ortmoqda.

Xususan, maktablar tarbiyaviy hamkorlikda oilaga pedagogik malakali ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega. Masalan, darsdan keyin o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli, foydali o'tkazishda sanfdan tashqari to'garak ishlarni tashkil etish orqali ularning turli darajadagi qonunbuzarliklari oldi olinadi. Yoki mahallada hashar, sport o'yinlari, obodonchilik yoki bayramlar, to'y-tomosha kabi ommaviy tadbirlarga o'smir va o'spirinlarni jalb qilish oila tarbiyasini yaxshilashga amaliy yordam beradi. Natijada ota-onalarning hotirjam mehnat qilishiga qulay sharoit yaratiladi.

Oilaviy tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan umumiy javobgarlik bevosita umumiy o'rta ta'lim va boshqa ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla va jamoatchilik zimmasiga yuklatiladi. Buning asosiy, birinchi sababi maktablarda ishlaydigan o'qituvchilar, tarbiyachilar bolalar ta'lim-tarbiyasi yuzasidan pedagogika, psixologiya fanlaridan maxsus malakali ma'lumotga va tajribaga egaligidir. Ikkinchi sababi, asosan, ko'pchilik ota-onalarning maktablar bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha ma'lumotlarining yo'qligi yoki yetarli tajribaga ega emasligidir. Albatta, ba'zi faol ota-onalar yuqoridagi fanlardan ma'lum darajada ma'lumoti bo'lishi mumkin, ammo buning o'zi yetarli emas.

Demak oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga umumiy tarbiyaviy ta'sirni barcha ta'lim-tarbiya muassasalari va jamoatchilik belgilashi kerak va

bunday ma'suliyat ularda ishlaydigan xodimlar zimmasiga yuklatiladi. Ammo amaliyotda bu masalada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar asosan barcha o'quv muassasalarda faqat rasmiy ravishda tashkil etilayotganligi sir emas. Agar oilada salbiy munosabatlar tarkib topgan bo'lsa, bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklar vujudga keladi, bu esa ko'pincha tarbiyasi qiyin bolalarning paydo bo'lishiga va oqibatda qonunbuzarlikka olib keladi.

Shuning uchun barcha ta'lim-tarbiya muassasalari, mehnat jamoalari va keng jamoatchilik (mahalla, oqsoqollar, xotin-qizlar qo'mitasi, kamolot yoshlar ijtimoiy harakati, ichki ishlar, prokratura, sud, adliya va hokozo) bolani tarbiyalashda yagona maqsad asosida hamkorlikda, uzviylikda, uzluksiz oilaga yordam berishi nazarda tutilgan. Amaliyotda bu soha bilan asosan maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim maktablari shug'ullanmoqda. Ushbu hamkorlikdagi tarbiyaviy ta'sir bola tarbiyasida amalga oshirilmas ekan, uning natijasi ham shunga yarasha bo'laveradi.

Hamkorlik va hamjihatlikning samarali bo'lishi bevosita shu ishni amalga oshirayotgan ishtirokchilarning hamkorlik, hamjihatlikning maqsad va vazifalarini ilmiy pedagogik jihatdan bilishlariga bog'liq. Buning uchun avvalo ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar jamoat tashkilotlari vakillari, mehnat jamoalari rahbarlari va keng jamoatchilikning bola tarbiyasida hamkorlik qilishning maqsadi va ahamiyatini tushuntirish, anglatishdan ya'ni pedagogik ma'lumotini tashkil qilishdan iborat.

Vazifasi esa yuqoridagi ishtirokchilardagi tarkib topgan pedagogik ma'lumotlar asosida ularni amalda qo'llash bilan bog'liq ko'nikma va tajribalarni hosil qilishdan iborat. Albatta bunga erishish uchun nafaqat ota-onalar, o'qituvchilar hatto jamoatchilik vakillari va keng jamoatchilikning pedagogik ma'lumotini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'z vaqtida A.S.Makarenko: «Yaxshi oilalar bo'ladi, yomon oilalar ham bo'ladi. Oila zarur darajada tarbiyalaydi, deb kafolat berish mumkin emas. Biz oila istaganidek tarbiyalashi mumkin deya olmaymiz. Biz oila tarbiyasini tashkil etishimiz kerak va bunda davlat tarbiyasining vakili sifatidagi maktab tashkiliy asos bo'lmog'i lozim», -deb juda o'rinli ta'kidlagan.

Haqiqatan ham oilalar turlicha. Ular ichida hozirgi zamon pedagogika, psixologiya fanlaridan umumiy ma'lumotga ega bo'lmasa ham, ammo xalq tarbiyashunosligidagi oilaviy an'analarni, urf-odatlarini, udumlarni, ma'naviy qadriyatlarini hamda ilg'or oila tajribalarini o'rganish asosida bola tarbiyasini namunali tashkil qilgan oilalar va bola tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'ygan ota-onalarning ijtimoiy pedagogik ma'suliyatsizligini ta'kidlash kerak. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'la foydalanmayotgan oilalar ota-onalarining pedagogik madaniyatini tashkil qilish zarurligini kundalik oilaviy va ijtimoiy hayot talab qilmoqda

Bu pedagogik va ijtimoiy vazifalarni amalda bajarish juda murakkab, ko'pqirrali jarayonligini har bir ota-onalar va amaldagi barcha rahbarlar tushunib anglab yetishlari juda muhim. Bu tashkiliy pedagogik vazifani amaliy hal etishning ilmiy va amaliy yo'li barcha mehnat jamoalarining ishlab chiqarish sohasi bilan birga jamiyatning ijtimoiy ustivor rivojlanishini ta'minlaydigan yosh avlod tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanishni davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yishdan iborat.

Oilaviy va ijtimoiy tarbiyani takomillashtirish bo'yicha ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, mehnat tashkilotlari, mahallalar, hayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish zarur.

Bugungi kun jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishlari lozim.

Haqiqatan ham yoshlarning ta'lim olishida va shaxsni har tamonlama shakllantirishda oila, mehnat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va hatto xalqaro fondlardan foydalanish hamda amalda qo'llash ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda xayriya fondlaridan oila tarbiyasini yaxshilashda foydalanish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

Yosh avlod barkamolligini ta'minlashda oilaviy tarbiyaning samaradorligini tashkil etishda mehnat jamoalari, xayriya va xalqaro fondlardan ota-onalarning bola tarbiyasi sohasidagi ma'lumotlarini oshirish maqsadida maktabda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalana olmagan ota-onalarning pedagogik o'quvini tashkil qilish va alohida ilmiy-amaliy pedagogik jurnallar, tavsiyalar va qo'llanmalarni nashr qilishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Shuning uchun birinchi galda ota-onalarning va jamoat tashkilotlari vakillarining pedagogika va psixologiya fanlaridan zaruriy bilimlar bilan qurollantirish va bola tarbiyasida oila, maktab, mahalla, mehnat jamoalari hamda jamoatchilikning hamkorlikdagi ta'sirini yo'lga qo'yish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

Oilaviy tarbiyada ota-onalarning bilim saviyasi, umumiy tarbiyaga oid madaniyati, mahorati, ijtimoiy intilishlari, harakatlari tarkib topayotgan amaliy tajribalari bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab oilalarga ma'lum darajada bolalar tarbiyasiga rasmiy jamoatchilik asosida yordam ko'rsatilayotganligiga qaramay, ba'zan tarbiyaviy ta'sirlarning hamkorlikdagi bir maqsadga ya'ni barkamol insonni shakllantirish uyg'unlikda yo'naltira olinmayotganligi achinarlidir.

Bu ishlarning bola tarbiyasiga samarali tarbiyaviy ta'sirini o'tkazishda xuquqiy pedagogik asoslarni ishlab chiqish va amaliyotda oila, ta'lim-tarbiya muassasalari va mehnat jamoalari rahbarlarining hamkorlikdagi javobgarligini ta'minlash va oshirish juda muhim. Hozir ba'zi maktabda hamkorlikdagi sohta tadbirlar bu borada samara bermayapti. Shuning uchun hamkorlikdagi tadbirlarning haqqoniyligiga erishish lozim.

Kuzatishlar va o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatayaptiki, hali ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajakdagi hayoti haqida hozirgi zamon talabi darajasida ota-onalik ijtimoiy ma'suliyatni his qilmaydilar va uni bajarmaydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlar kelajakda hayotda o'z o'nini topishda qiynaladi. O'z tengdoshlaridan har jihatdan ortda qoladi. Ularning bu ahvolga tushishga ham oilada mas'uliyatsiz ota-onalar aybdor bo'ladi. O'zlarining ish bilan bandliklarini va boshqa sabablarini ro'kach qilib ko'rsatishadi. Eng muhimi

kelajakda o'zlarining keksa bo'lganlarida piru badavlat ota-onalar bo'lishini ya'ni o'z farzandlari ardog'ida bo'lib e'zozlanishini, qadrlanishini to'g'ri tasavvur qilmaydilar. Ular oilada ota-onalarning eng asosiy vazifasi oilani moddiy jihatdan ta'minlash deb bilishadi va ularning ba'zilar buning uddasidan ham chiqa olmaydi. Ular farzandlarni aqliy, ma'naviy kamol toptirish, oila hayotini har tamonlama ya'ni moddiy, ma'naviy jihatdan boshqarishligini, ayniqsa, bolalariga o'z vaqtida ta'sir ko'rsatishligini tushunmaydi. Oilada axloqiy, iqtisodiy, ma'naviy, xuquqiy, mehnat yo'nalishlarda va turmush tarzini tashkil qilishda muammolar bor. Oqibatda, oila tarbiyasida ko'plab muammolar kelib chiqmoqda. Masalan, ba'zi ota-onalar keksa bo'lgach, o'z farzandlariga o'z vaqtida tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olmay, ularning tarbiyasidan boshqalar noliydi, hatto sud idoralariga arz qilishgacha boradiganlari ham topiladi. Bunday ota-onalar birinchi navbatda oilada bolalar tarbiyasini bolalari kichikligidanoq to'g'ri tashkil qilishni bilishmaydi. Ota-ona bilan o'g'il farzandlararo qarama-qarshiliklar, nizolar kelib chiqadi. Oqibatda bolalariga noto'g'ri tarbiya berganligi tufayli keksalikda jabrlanishadi va jazosini olishadi.

Bola tarbiyasini aql asosida tashkil etishda ota-onalar o'zlari yashaydigan mahalladagi namunali oilalar tajribasi va sinf rahbarlarining amaliy pedagogik maslahatlardan bevosita foydalanishlari darkor. Ota-onalar maktab pedagogik jamoaning faol o'qituvchilari tomonidan tashkil qilinadigan konsul'tatsiyalarida bola tarbiyasini tashkil etish bo'yicha tegishli maslahatlar olishi bu sohadagi ishlarga ijobiy ta'sir etadi. Ota-onalarga bola tarbiyasi haqida bilim berishda sinf va maktab ota-onalar yig'ilishlari, ota-onalarni maktabga chaqirish va sinf rahbarlarining o'quvchilar uylariga borib ota-onalar bilan suhbat va konsul'tatsiya olib borishlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur yo'nalishlarda olib borilayotgan tarbiyaviy tadbirlar ham aksariyat hollarda rasman tashkil etilayotganligi barchaga ayon. Albatta, bu sohada samarali natijalarni qo'lga kiritayotgan maktablar mavjudligini e'tirof etish kerak. Biroq bunday maktablar yutug'i umumiy faoliyatimizni o'nglashga imkoniyat bermaydi. Bu masalani amalda hal etish uchun ta'lim-tarbiya muassasalarining ota-onalar mehnat qiladigan zavod, fabrika, qo'shma korxonalar, shirkatlar jamoasi, dehqon-fermer nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlar va boshqa

jamoalar rahbarlari orqali ota-onalarga bola tarbiyasida kuchli hamkorlikdagi jamoatchilik ta'sirini tashkil etish eng samarali usul hisoblanadi. Bunday usulni amaliy hayotga joriy etish ota-onalarning sinf, maktab ota-onalar yig'ilishlariga kelmasliklarining, umuman, bola tarbiyasidagi hamkorlikda jamoatchilik ta'sirini ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltirgan bo'lardi.

Galdagi vazifa ota-onalarni bola tarbiyasidagi kelajak istiqboliga ishontirishdan iborat. Buning uchun ota-onalarda bola tarbiyasi sohasida qiziqishlarini tashkil qilish o'z bolalari bilan oilada tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishga o'rgatish juda muhim. Ota-onalarni ishontirishga maktabdagi tajribali, o'z ustida ishlaydigan, harakatchan, obro'li o'qituvchilarni jalb qilish zarur. Bunday o'qituvchilar har bir maktabda topiladi. Faqat maktab rahbarlari ularning talabga javob beradiganlarini mazkur ishga jalb qilsalar bas. Bu sohada ota-onalarning o'qishini kamida bir oyda bir marta eng bo'lmaganda kech kuz va qish fasllarida qishloq umumiy o'rta ta'lim maktablari uzluksiz, mazmunli, rang-barang shakllarda tizimli tashkil etish samarali natijalar beradi. Yana mazkur ishga oliy ta'lim pedagogika, psixologiya kafedralarining taniqli, tajribali xodimlarini jalb qilish hayotiy zarurat bo'lib qolmoqda. Ota-onalar o'qishini hozirgi amaldagi ma'ruza, suhbat, yig'ilishlar shakli bilan bir qatorda ko'rsatmali oila hayotidagi ijobiy yoki yomon tajribalarni video vositasida tomosha qilib, tahlil, muhokama, munozara qilish usullaridan foydalanish samarali natijalar berishi aniq. Bu usullar ota-onalarda bola tarbiyasida mas'uliyatni oshirib va pedagogik madaniyatini tashkil qilishga olib keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Nima uchun yosh avlod tarbiyasida oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla va jamoatchilikning hamkorlikdagi ta'siri ta'minlanadi?
2. Yosh avlodga hamkorlikda, hamjihatlikda ta'sir ko'rastirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Nima uchun yosh avlod tarbiyasida hamkorlik va hamjihatlikda ta'sir ko'rsatishga talab ortib bormoqda?
4. Nima uchun yosh avlodga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ma'suliyat umumiy o'rta ta'lim va boshqa muassasalari zimmasiga yuklatilgan?

5. Nima uchun ba'zi oilalarda o'smirlar orasida qonunbuzarlik holatlari va tarbiyasi qiyin bolalar mavjud?
6. Nima uchun yosh avlod tarbiyasida oila, o'quv muassasalari, mahalla, mehnat jamoalari, ichki ishlar, prokuratura, sud, adliya va keng jamoatchilik-hamkorlikda ishlashi darkor?
7. Nega yosh avlod tarbiyasida hamkorlik, hamjihatlikning huquqiy asoslari ishlab chiqilishi va hayotda qo'llanilishi zarur?
8. Yosh avlod tarbiyasida hamkorlikda ta'sir etish maqsadida ilmiy-amaliy pedagogik jurnallar, qo'llanma va tavsiyalar nashr etishni yo'lga qo'yish darkor?
9. Yosh avlod tarbiyasida hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning yana qanday samarali shakllari bo'lishi mumkin?

OILADA BOLANI MAKTABGA TAYYORLASH

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muxim dastlabki tarbiya muassasidir.

Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham asosan oilada tarbiyalanadi. Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Insonlarning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi», -deb o'z o'rnida to'g'ri ta'kidlagan.

Haqiqatan ham barkamol insonni shakllantirishda oilaning ta'sir kuchi katta. Insonning bir sutka davomidagi hayotining 4\3 qismi oila ulushiga to'g'ri keladi. Shu nuqtai nazardan yondoshganda oila ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalariga nisbatan komil inson tarbiyasida beqiyos tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligi va uning o'rnini bosa oladigan tarbiya maskani yo'qligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun xozir oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishni oila va ijtimoiy hayotning yo'nalishi, extiyoji, talabi taqozo qilmoqda.

Ayniqsa oilada bolaning aqliy tafakkurini rivojlantirish, maktab ta'lim-tarbiyasini olishga tayyorlash muxim ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ota-onalarning vazifasi faqatgina farzandni dunyoga keltirib qo'yishgina emas, balki uni jamiyatimizga mos aqlli, har tamonlama barkamol inson qilib tarbiyalash hamdir.

Oilada bolani maktabga tayyorlash aqliy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Bolaning 6-7 yoshidagi vazni, buyi, suyak, muskul tizimining rivojlanishi, uning jismoniy, ruxiy aqlining o'sishini ta'minlashga asos bo'ladi. Uning sezgi organlari, tasavvuri, diqqati, esda olib qolishi, fikrlashi bilan bog'liq intilishlari va irodasi kabi sifatlari deyarli tarkib topgan.

Bolaning o'qish, yozishga bo'lgan mayli, xoxishi tobora ortib boradi. Endi bolaning ana shu intilishini qo'llab-quvvatlash, kattalarning, ota-onalarning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda avvalo uning jismoniy o'yindagi harakatlarini, rasm chizishga bo'lgan intilishlarini, ko'rgan, bilgan voqea-xodisalarini aytishga, musiqa tinglash, o'yinchoklarni extiyotlab o'ynash, saqlash, kiyimlarni kiyish, yechish, ota-onaga yordam berish kabi faoliyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Unda ota-ona bolaning yuqoridagi faoliyatlarida aqliy rivojlanish darajasi va mustaqilligi qanday tarkib topayotganligiga asosiy e'tiborni qaratishi kerak. Chunki, bularning barchasi bolaning uyini, mehnati jarayonidagi aqliy darajasi, mustaqilligi, tengdoshlari bilan bo'ladigan muomala va munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

Shuning uchun bola faoliyatining rang-barang bo'lishiga yordam beradigan tadbirlar, sayrlar, teatr, mul'tifilm tomoshalari, ertaklar olamiga yetaklash, rangli kitoblar bilan ta'minlash ota-onalarning bola bilan suhbatlashishi kabi tadbirlar unda madaniy ko'nikmalarning tarkib topishida, aqlining o'sishida muhim o'rin egallaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati asosan o'yinni tashkil kiladi. Uning maktabga jalb qilinishi bilan bola hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. U endi o'zining erkin uyinidan ma'lum darajada voz kechib, o'qish talab qiladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tishida o'z aqliy kuchi va irodasiga tayanadi.

Bolaning o‘yin, mehnat faoliyatidagi mustakilligi vaqt o‘tishi bilan asta-sekin tarkib topa boradi. Va bu sohalarida bolaning o‘z tasavvuri, fikrlashi muayyan darajada shakllanib boradi. Yuqoridagi barcha tashkiliy tadbirlar bolaning o‘qish faoliyatiga tayyorlashning poydevori bulib xizmat qiladi.

Oilada ota-onalar birinchi galda o‘z bolasining o‘qishga bo‘lgan munosabati haqida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga to‘g‘ri, asosli ma‘lumot berishi juda muxim va foydalidir. Ota-onalar o‘g‘li yoki qizining sog‘ligi, intilishlari, xarakatlari, fe‘l-atvori, o‘qish, yozishga bo‘lgan munosabatlari va umumiy tayyorgarligi to‘g‘risida aniq ma‘lumot bersa, bolani maktabga tayyorlash oson kechadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Bola xuquqlari kafolatlari tug‘risidagi Qonun»da bolaning bilim olish xuquqi belgilangan va uni bajarish ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun bolaning bilim olishga bo‘lgan xuquqini amalga oshirishda ota-onalar o‘ta mas‘uliyatli bo‘lishlari va ularni xozirgi talablar asosida uddalashlari lozim. Ba‘zi ota-onalarning bu masalaga jiddiy yondoshmaganlari, hatto befarq bo‘ladiganlari ham kam bo‘lsada, uchraydi. Bunday hol bolaning o‘qishiga jiddiy ziyon yetkazadi. Bolaning fanlarni o‘zlashtira olmasligiga olib keladi. Natijada tengdoshlardan ortda qoladi.

Bizningcha oilada ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda asosan quyidagi yo‘nalish va mazmunda tashkiliy tayyorgarlik ishlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Bular:

bolaning o‘quv jihozlari: kitob, daftar, qalam, ruchka rasm chizish qurollari, o‘quv xonasi bilan ta‘minlashi va ularga bolaning to‘g‘ri munosabatni tarbiyalashi;

maktabgacha tarbiya davrida turli rangli rasimli ertak, xikoya kitoblar bilan ta‘minlash va ular bilan mashg‘ulotlarni olib borishi;

bolani oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta‘minlashi;

bolada axloq-odob ko‘nikma va odatlarni tarbiyalashi;

sog‘ligi, shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini tarkib toptirish yuzasidan g‘amho‘rlik ko‘rsatishi va nazorat kilishi;

bolada muomala, munosabatga kirishish va turmush ko'nikmalarini tarkib toptirishga muvofiq bo'lish orqali uning madaniylashuviga erishishi va ularga befarq bo'lmasligi;

bolada sonlarni, rasm chizish va harf elementlarini bajarishga asta-sekin o'rgata borishi;

bola bilan muamala, munosabatga kirishishda uni kamsitmasligi, nafsoniyatiga tegmasligi va aksincha uni hurmat qilishga erishmog'i;

bolaning kelajak hayotga bo'lgan ishonchni tarkib toptirishga erishmog'i;

bolaning o'yin, o'qish va mehnatdagi ilk yutuqlarini maqtab hamda nuqsonlarini tushuntirib borishi;

bolaning o'yin, o'qish, mehnat va dam olishlarini uygunlashtirish;

bolani o'qishga ruxiy, aqliy va ma'naviy jihatdan tayyorlash;

bolani topshiriqlarni bajarishda burchni xis qilishga, ongli bajarishga ko'niktirib, odatlantirib borish;

bolaning lug'at boyligini orttirishga, talaffuzining, nutqining rivojlanishiga, o'z fikrini aytib berishga o'rgatib borish;

bolaning yosh va individual xususiyatlarini va xulq-atvorini yaxshi bilishi, o'rganishi va oila tarbiyasida tadbiiq qilishi;

ota-onalar boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan doimiy hamkorlikda ishlashi;

bolani asta-sekin o'yin, o'qish va bajaradigan topshiriqlarda mustaqil bo'lishga harakat qilishi;

bolaning bilim olishga bo'lgan maylini, xohishi va intilishlarini tarbiyalashi, ta'minlashi va tarkib toptirishi va bolani rejimga o'rgatib borishi va xokazo.

Yuqoridagi tashkiliy tayyorgarlik tadbirlar bolaning maktabga tayyorgarligini ta'minlovchi yo'nalishlardir.

Shunday qilib oilada ota-onalar yuqoridagi vazifalarni tashkil qilish bilan birga bolaning o'qishga va yozishga, bo'lgan qiziqishini hayotiy misollar keltirib tarkib toptirib, orttirib borishlari juda muhim. Bolada o'qish va bilishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashda u bilgan qo'shnilarining oila hayotlarini namuna qilib

ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi bolani maktabga amaliy tayyorgarligini tminlashga zamin yaratadi.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Ota-onalarning bola ta'lim-tarbiyasi haqida burchi va vazifalari qaysi rasmiy manbalarda o'z ifodasini topgan?
2. Ota-onalar bolani maktabga tayyorgarligi bo'yicha qaysi yo'nalishlarda tashkiliy tadbirlarni olib borishlari lozim?
3. Sizningcha ota-onalarning bolani maktabga tayyorgarligida yana qanday ishlar amalga oshirilishi darkor?



Xulosa

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini. Shuning uchun ham oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning (bog'cha, maktab, kasb-hunar, oliy maktab) tarkibini tashkil qiladi. Oila tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil qilmay ijtimoiy tarbiyani rivojlantirib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, oila tarbiyasini hozirgi zamon talabi, ehtiyojidan kelib chiqib tashkil qilish ijtimoiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlash, mamlakatning ma'naviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shuning uchun oila tarbiyasini jamiyatning ob'ektiv ehtiyojidan kelib chiqib tashkil qilish zarurligini pedagogika-psixologiya bakalavrlari va boshqa o'qituvchi mutaxassislar hamda ota-onalar anglashlari juda muhim.

Har bir oilada bola tarbiyasi yuzasidan ota-onalarda aniq istiqbolli maqsad bo'lishi kerak. Bola hayot haqida tasavvurni birinchi navbatda oilada ota-onasi, buva, buvi, aka-opalaridan oladi. Agar davlat ta'lim-tarbiya muassasalari bolaga bilim berib tarbiyalasa, ota-onalar bolalar bilan birga yashab, ularni har jihatdan tarbiyalaydilar ham.

Hamma gap shundaki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanmay, balki oilaning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, ota-onalarning shaxsiy namunasi, axloqi va amaliy faol harakatlari bilan bevosita hal etiladi. Bunda ota-onalarning katta yoshdagi kishilarning bolalar tarbiyasi yuzasidan o'z ma'suliyatlarini va burchini chuqur his qilishlari yetakchi masaladir. Oila doirasida ota-onalarning o'zaro bir-biri bilan ijobiy munosabatlari, bolalarni to'g'ri tarbiyalashning birinchi va zaruriy sharti hisoblanadi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «...Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatlarimiz alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'liqdur. Harakatli kishilar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yolqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib xorlikda qolurlar», -deb juda o'rinli ta'kidlagan. Bizningcha bu fikr bevosita ota-onalarning oilada bolalarni tarbiyalashdagi harakatiga, g'ayratiga, faolligiga bog'liq desak to'g'ri bo'ladi.

Bola tarbiyasi ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligiga bog‘liq. Bolalar tarbiyasida oilada ota-onalarning shaxsiy namunasi, obro‘cini, so‘z va ish birligini ta‘minlash darkor.

Ushbu qo‘llanma talabalar, mutaxassislar, ota-onalar va keng jamoatchilik oila tarbiyasini yanada yaxshilash va takomillashtirishga bevosita amaliy yordam beradi degan fikrdamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: (2012 yil 1-maygacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) - Toshkent: «Adolat», 2012 y. 192 b.
3. O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent: 2008-yil, 7-yanvar, №ORQ-139.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. Ma'rifat gazetasi, 2018 yil, 29-dekabr, №104 (9169).
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
6. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. - Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
7. Hasanboeva O. Oila pedagogikasi. - Toshkent: «Aloqachi», 2007. -384 b.
8. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. - Toshkent: «O'qituvchi», 1988.
9. Abu Ali ibn Sino. Tadbir-al manozil. – «Tehron», 1939.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Toshkent, 1972.
11. Kaykovus. Qobusnoma. /Forschadan. Ogahiy tarj/. – 2-to'ldirilgan nashri. - Toshkent: «Istiqlol», 1994.-173 b.
12. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
13. Malika Inomova. “Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi”. T., 1999 yil,
14. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish – T.: Fan, 1993.
15. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. - Toshkent: «Mehnat», 1991.
16. Faxr-ul Banot Subg'atulloh qizi. Oila saboqlari. - Toshkent: «Mehnat», 1991.
17. Aliy Nazimo. Qizlar tarbiyasi. - Toshkent: «Kamalak», 1994.
18. Usanov Abdulahat. Oilaviy an'analar - axloq va mehnat tarbiya vositasi. - Samarqand: SamDU nashri, 1990.
19. Usanov Abdulahat. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2005.
20. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish – T.: Fan, 1993.
21. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. -T.: O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti. 1995.
22. Quronov M. Milliy tarbiya. T. «Ma'naviyat» 2007.
23. Inomova M. “Xalq pedagogikasi – oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning muhim vositasi”. Xalq ta'limi, №5-6, 1995 yil, 71-78 betlar.
24. Usanov Sh. Ota-onalarning farzandlar kamolotidagi harakati shaxsni shakllantirish vositasi. Bola va Zamon jurnali. №1 / 2022-yil. 58-60-b.
25. Usanov Sh. O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari. Xalq ta'limi jurnali. №6 / 2022-yil. 112-115- b.
26. Usanov Sh. Bola tarbiyasida oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-

sharoitlari. Ta'limda xalqaro baholash tadqiqotlari: amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Samarqand, SamVPYMO'MM, 2022-yil 2-dekabr. 125-128-b.

27. Usanov Sh. O'quvch-yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda ota-onalar pedagogik madaniyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari. Hayot davomida ta'lim olish: yangi paradigmalar va kutiladigan natijalar mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Special Issue on "LIFE LEARNING: NEW PARADIGMS AND EXPECTED RESULTS". Published June 23.2022. "BILIG-ILMIY FAOLIYAT" Nashri. 25.06.2022. 796-799- b.



MUNDARIJA

Kirish	3
1. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini tarkib toptirish dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	5
2. Ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma'lumot berish	11
3. Ota-onalarning bolaga ta'sir ko'rsatish qoidalari va usullari.....	17
4. Ota-onalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirish, takomillashtirish-bolani to'g'ri tarbiyalashning zaruriy sharti	23
5. Bola tarbiyasida oila, ta'lim-tarbiya muassasalari, mahalla va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi	31
6. Bolani maktabga tayyorlash	36
Xulosa	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	46